



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 30-aprel

60-5-0-F/25

Navoiy viloyati hokimligi

“Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi hamda “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunlariga muvofiq, respublika miqyosida o‘tkazilayotgan “Toza havo” oyligini viloyatda samarali o‘tkazilishini ta’minlash, atmosfera havosini avtotransport vositalaridan chiqayotgan zararli chiqindilar bilan ifloslanishini kamaytirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2025-yil 27-martdagi 02-03/5-1-sonli hamda Ichki ishlar vazirligining 24/3-4014-sonli qo‘shma ko‘rsatmasiga, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Navoiy viloyati boshqarmasining 2025-yil 8-apreldagi 01-01/13-2228-sonli xatiga asoslanib,

1. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2025-yil 27-martdagi 02-03/5-1-sonli hamda Ichki ishlar vazirligining 24/3-4014-sonli qo‘shma ko‘rsatmasi bilan Respublika miqyosida “Toza havo” oyligining I bosqichi 10-aprel-10-may kunlari hamda II bosqichi 10-avgust-10-sentabr kunlari o‘tkazilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyatda “Toza havo” oyligini o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruh tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ishchi guruh (R. Ergashev) “Toza havo” oyligini o‘tkazish yuzasidan tadbirlar rejasi ishlab chiqilishini, uni samarali amalga oshirilishini hamda tadbir yakunlari bo‘yicha viloyat hokimligiga axborot kiritilishini ta’minlasin.

4. Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (R. Ergashev), viloyat yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (X. Raxmatov), tuman (shahar) hokimliklari:

tuman (shahar)larda “Toza havo” oyligini o‘tkazish bo‘yicha malakali mutaxassislarini jalb qilgan holda ishchi guruhlar tuzilib, ularni avtotransport vositalaridan atmosfera havosiga tashlanayotgan “is” gazlari va zararli tutun miqdorini o‘lchash uskunalarini bilan ta’minlash;

viloyatda yuridik shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni talablari buzilishi holatlari

aniqlanganda, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda bartaraf etish choralarini ko'rsin.

5. Viloyat teleradiokompaniyasi (A. Muqimov), "Do'stlik bayrog'i" va "Знамя дружбы" gazetalari tahririyati (B. Umarov)ga viloyatda "Toza havo" oyligini o'tkazish jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu farmoyish ijrosini nazorat qilish viloyat hokimligining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalarni rivojlantirish, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha kotibiyati zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



N.Tursunov

Navoiy viloyati hokimining
2025-yil 30-apreldagi
60-5-0-F/25-son farmoyishiga
1-ilova

**Viloyatda “Toza havo” oyligini o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruh
TARKIBI**

T/r	F.I.SH	Lavozimi
1	R.Ergashov	Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi boshlig‘i - ishchi guruh rahbari;
2	X.Raxmatov	Viloyat yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘i – ishchi guruh a‘zosi;
3	Z.Azimov	Viloyat davlat sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati boshqarma boshlig‘i - ishchi guruh a‘zosi;
4	B.Shomurodov	“O‘zenergoinspeksiya” Navoiy viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘i - ishchi guruh a‘zosi;
5	B.Raximov	Viloyat transport boshqarmasi boshlig‘i-guruh a‘zosi;
6	T.Quvanov	Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi, Atmosfera havosini muhofaza qilish shu‘ba boshlig‘i - ishchi guruh kotibi